

O‘ZBEKISTONDA DINLARARO VA MILLATLARARO TOTUVLIK: DAVLAT MEXANIZMLARI EVOLYUTSIYASI

Xolnazarova O‘g‘ilshod Rashid qizi

Termiz davlat universiteti, Tarix fakulteti magistranti

E-mail: xolnazarovaogilshod30@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlashda davlat institutlarining tarixiy-institutsional roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu siyosatning faqat normativ-huquqiy hujjatlar bilan cheklanmasdan, uni hayotga tatbiq etuvchi institutsional mexanizmlar orqali amalga oshirilgani asoslab beriladi. Xususan, diniy sohani muvofiqlashtirish, millatlararo munosabatlarni boshqarish, mahalla institutining profilaktik vazifasi hamda fuqarolik jamiyati tuzilmalari bilan hamkorlikning amaliy natijalari yoritiladi. Shuningdek, 1990–1992-yillardagi Farg‘ona vodiysidagi keskinlik va 2005-yil Andijon voqealari tajribasi asosida “reaksion” yondashuvdan “oldini oluvchi va muvozanatni saqlovchi” boshqaruv modeliga o‘tish jarayoni ilmiy asosda izohlanadi. Maqolada O‘zbekiston tajribasining xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashgan holda milliy sharoitga mos tadbiq etilishi ham ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, davlat institutlari, tarixiy-institutsional yondashuv, profilaktika, ijtimoiy muvozanat, mahalla, milliy-madaniy markazlar, integratsiya, fuqarolik jamiyati

ABSTRACT

This article analyzes the historical and institutional role of state institutions in ensuring religious tolerance and interethnic harmony in Uzbekistan during the years of independence. The study substantiates that this policy was implemented not only through regulatory and legal documents, but also through institutional mechanisms that implement it. In particular, the coordination of the religious sphere, management of interethnic relations, the preventive function of the mahalla institution, and the practical results of cooperation with civil society structures are highlighted. Also, based on the experience of the tension in the Fergana Valley in 1990-1992 and the Andijan events of 2005, the process of transition from a “reactionary” approach to a “preventive and balancing” management model is scientifically explained. The article also shows the application of the Uzbek experience in accordance with international standards and in accordance with national conditions.

Keywords: *religious tolerance, interethnic harmony, state institutions, historical-institutional approach, prevention, social balance, neighborhood, national-cultural centers, integration, civil society*

KIRISH

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash masalasi jamiyat barqarorligi, fuqarolik birdamligi va ijtimoiy hamjihatlikning muhim sharti sifatida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Globallashuv jarayonlari kuchaygan hozirgi davrda diniy va etnik xilma-xillikni samarali boshqarish, konfessiyalararo muvozanatni saqlash, radikal g‘oyalarning oldini olish hamda ijtimoiy ziddiyatlarni profilaktika qilish har bir davlatning ichki xavfsizligi va taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan strategik vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, migratsiya jarayonlarining ortishi, axborot makonining kengayishi va turli mafkuraviy ta‘sirlarning kuchayishi sharoitida diniy hamda milliy munosabatlarni izchil tartibga solish, ularni ijtimoiy barqarorlik resursiga aylantirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash siyosati avvalo konstitutsiyaviy asoslar bilan mustahkamlangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va e‘tiqodidan qat‘i nazar qonun oldida tengligi belgilangan bo‘lsa, 31-modda har bir shaxsning vijdon erkinligi, istalgan dinga e‘tiqod qilish yoki hech bir dinga e‘tiqod qilmaslik huquqini kafolatlaydi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil tahriri). Mazkur konstitutsiyaviy normalar diniy va milliy munosabatlarni tartibga solishda davlatning asosiy tamoyillarini belgilab, ijtimoiy tenglik va bag‘rikenglikning huquqiy poydevorini yaratadi.

Shuningdek, diniy sohada munosabatlarni huquqiy tartibga solish va diniy tashkilotlar faoliyatining qonuniy asosda olib borilishini ta‘minlashda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun alohida o‘rin tutadi. Ushbu qonunda vijdon erkinligi va diniy e‘tiqod huquqi (3-modda), fuqarolarning dinidan qat‘i nazar tengligi va kamsitishning taqiqlanishi (4-modda), davlat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari (5-modda) hamda diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish masalalari (14-modda) aniq belgilab berilgan (O‘RQ-699, 2021-yil 5-iyul). Bu esa diniy faoliyatni yashirin va norasmiy maydondan chiqarib, huquqiy tartibga solinadigan ochiq ijtimoiy jarayonga aylantirishga xizmat qiluvchi muhim normativ asos hisoblanadi.

Biroq O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash faqat normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish bilan cheklanmaydi. Mazkur yo‘nalishdagi siyosatning samaradorligi uni amaliyotga tatbiq etuvchi institutsional tizimlar va boshqaruv mexanizmlarining mavjudligiga bevosita bog‘liq. Shu jihatdan, mustaqillik yillarida davlat institutlarining roli “qat’iy nazorat” yoki “buyruqbozlik” tamoyillariga emas, balki muvofiqlashtirish, profilaktika, muloqot va muvozanatni saqlashga tayangan boshqaruv modeli sifatida shakllandi. Bunda diniy soha bo‘yicha maxsus vakolatli tuzilma, millatlararo munosabatlarni boshqaruvchi markaziy institutlar, mahalla tizimi, milliy-madaniy markazlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro hamkorlikda ishlashi natijasida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga erishildi.

Mazkur masalaning dolzarbligini oshiradigan muhim omillardan biri — tarixiy tajriba va murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq saboqlardir. Xususan, 1990–1992-yillarda Farg‘ona vodiysida yuzaga kelgan ijtimoiy keskinlik holatlari milliy va ijtimoiy masalalar institutsional boshqaruv yetarli bo‘lmagan sharoitda qanday tez keskinlashishini ko‘rsatgan bo‘lsa, 2005-yilda Andijon shahrida sodir bo‘lgan voqealar diniy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar uyg‘unlashgan vaziyatlarda muammolarni faqat favqulodda choralar bilan hal etish barqaror natija bermasligini yaqqol namoyon etdi. Mazkur tarixiy tajribalar O‘zbekistonda diniy va milliy munosabatlarga nisbatan “muammo yuzaga kelgach javob berish” yondashuvini bosqichma-bosqich “oldini oluvchi, monitoring va profilaktikaga tayangan” institutsional boshqaruv modeli bilan almashtirish zaruratini kuchaytirdi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston tajribasida diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlashda xalqaro me‘yor va tavsiyalar ham inobatga olinib, ular milliy tarixiy hamda ijtimoiy sharoitga moslashtirilgan holda tatbiq etildi. Bu jarayon mexanik ko‘chirish shaklida emas, balki milliy manfaatlar va jamiyat barqarorligi tamoyillari asosida amalga oshirilgani bilan xarakterlanadi.

Demak, O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash siyosati konstitutsiyaviy va huquqiy asoslar bilan bir qatorda, uni hayotga tatbiq etuvchi davlat institutlari faoliyati orqali izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bois mazkur mavzuni tarixiy-institutsional yondashuv asosida o‘rganish, davlat institutlarining shakllanish bosqichlari, boshqaruv mexanizmlari hamda ijtimoiy barqarorlikka ta‘sirini ilmiy asosda tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — mustaqillik yillarida O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash jarayonida davlat institutlarining tarixiy-institutsional rolini tahlil qilish, ularning shakllanish omillari, boshqaruv

mexanizmlari hamda ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini ilmiy asosda yoritib berishdan iborat.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlashda davlat institutlarining tarixiy-institutsional roli tarixiy va tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil tahriri; "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-699, 2021-yil 5-iyul) mazmuniy tahlil qilindi. Shuningdek, davlat institutlarining shakllanish bosqichlari va funksional vazifalarini aniqlashda tarixiy-qiyosiy hamda institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Empirik dalillar sifatida mustaqillik yillarida yuz bergan muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va voqealar (Farg'ona vodiysi, 1990–1992; Andijon, 2005) kontekstual tahlil qilinib, ular asosida profilaktik boshqaruv modelining evolyutsiyasi yoritildi. Tadqiqot natijalari umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullari orqali tizimlashtirildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash masalasi faqat normativ-huquqiy hujjatlar bilan cheklanib qolmadi, balki ularni hayotga tatbiq etuvchi institutsional mexanizmlar orqali amalga oshirildi. Bu jarayonda davlat institutlarining roli "qat'iy nazorat" yoki "buyruqbozlik" modeli asosida emas, balki muvofiqlashtirish, profilaktika va muvozanatni saqlash tamoyillariga tayangan holda shakllandi.

Tarixiy nuqtai nazardan, bunday yondashuvning tanlanishi tasodifiy emas edi. Mustaqillikdan keyingi dastlabki yillarda diniy va milliy erkinliklarning kengayishi bilan bir qatorda, huquqiy maqomi noaniq shaxslar, migratsiya oqimlari, konfessiyalararo muvozanat masalalari ham yuzaga chiqdi. Agar bu jarayonlar faqat ma'muriy cheklovlar orqali boshqarilganida, ular ijtimoiy beqarorlik manbaiga aylanishi mumkin edi. Shu bois davlat institutlari diniy va milliy sohadagi jarayonlarni jazolash orqali emas, boshqarish va tartibga solish orqali yo'naltirish yo'lini tanladi.

Bunga yaqqol misollardan biri — fuqaroligi bo'lmagan shaxslar masalasining hal etilishidir. Sovet Ittifoqi parchalangandan so'ng O'zbekiston hududida uzoq yillar davomida yashab kelgan, biroq huquqiy jihatdan hech bir davlat fuqaroligiga ega bo'lmagan shaxslar mavjud edi. Bu holat nafaqat migratsion muammo, balki millatlararo munosabatlar va ijtimoiy integratsiya nuqtai nazaridan ham xavfli omil sifatida qaraldi. 2020–2021-yillarda qabul qilingan qarorlar asosida o'n minglab shaxslarga O'zbekiston fuqaroligi berilishi davlat institutlarining inklyuziv va

muvozanatli siyosati mahsuli bo'ldi. Ushbu jarayon repressiv choralar orqali emas, balki huquqiy maqomni aniqlashtirish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish orqali amalga oshirildi. Natijada, ilgari "muammoli toifa" sifatida qaralgan guruh jamiyatning to'laqonli a'zolariga aylandi.

Shuningdek, diniy sohada ham davlat institutlarining muvofiqlashtiruvchi roli yaqqol namoyon bo'ldi. Diniy tashkilotlar faoliyati ustidan to'liq taqiqlovchi nazorat o'rnatilmadi, aksincha, ularning faoliyatini huquqiy maydonga olib chiqish, ochiq ro'yxatdan o'tkazish va qonuniy asosda ishlashiga sharoit yaratildi. Bu orqali diniy faollik yashirin yoki norasmiy maydondan chiqarilib, ijtimoiy barqarorlikka tahdid tug'diruvchi omil emas, balki boshqariladigan ijtimoiy jarayonga aylantirildi.

Davlat institutlarining yana bir muhim funksiyasi — *potensial ziddiyatlarni erta aniqlash va profilaktika qilish*dan iborat bo'ldi. Bu yondashuvning shakllanishiga O'zbekiston tarixida yuz bergan ayrim murakkab ijtimoiy-siyosiy voqealar muhim tarixiy saboq bo'lib xizmat qilgan. Xususan, 1990–1992-yillarda Farg'ona vodiysida kuzatilgan ijtimoiy keskinlik holatlari hamda 2005-yilda Andijon shahrida sodir bo'lgan voqealar diniy va ijtimoiy masalalarni faqat kechiktirilgan yoki kuch ishlatishga asoslangan choralar orqali hal etish barqaror natija bermasligini yaqqol namoyon etdi.

1990-yil iyun oyida Farg'ona vodiysida yuzaga kelgan ijtimoiy to'qnashuvlar sovet tizimi yemirilishi arafasida milliy va ijtimoiy masalalarning yetarlicha institutsional boshqaruvga ega bo'lmagan sharoitda qanday tez keskinlashishini ko'rsatdi. Bu voqealar mustaqillik arafasida davlat boshqaruvida millatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi aniq mexanizmlar yo'qligi qanday xavf tug'dirishini ochib berdi. Aynan shu tarixiy tajriba keyinchalik mustaqil O'zbekistonda millatlararo totuvlikni tasodifiy jarayon emas, balki davlat siyosati darajasida boshqariladigan ijtimoiy jarayon sifatida shakllantirish zaruratini kuchaytirdi.

Keyingi bosqichda, *2005-yilda Andijon shahrida* sodir bo'lgan voqealar diniy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar o'zaro uyg'unlashgan murakkab vaziyatlarda faqat favqulodda choralar bilan cheklanish yetarli emasligini yana bir bor tasdiqladi. Ushbu voqea davlat institutlari uchun diniy va milliy sohadagi muammolar keskinlashgandan keyin javob berish ("reaksion") modeli o'rniga, ularni erta aniqlash, oldini olish va muloqot orqali yumshatishga asoslangan yondashuvni kuchaytirish zaruratini dolzarb qilib qo'ydi.



1-rasm. 1990-yil iyun oyida Farg‘ona vodiysida yuzaga kelgan ijtimoiy to‘qnashuvlar

Tarixiy-institutsional nuqtai nazardan, aynan *Farg‘ona vodiysidagi 1990–1992-yillardagi keskinlik va Andijon voqealari (2005)* O‘zbekistonda diniy va milliy masalalarni boshqarishda yangi bosqichni boshlab berdi. Endilikda davlat institutlari bu sohani faqat xavfsizlik muammosi sifatida emas, balki doimiy monitoring, profilaktika va ijtimoiy muloqot talab etuvchi murakkab ijtimoiy jarayon sifatida talqin qila boshladi.

Natijada diniy va milliy munosabatlarga nisbatan “muammo yuzaga kelgach choralar ko‘rish” yondashuvi bosqichma-bosqich “oldini oluvchi, muvozanatni saqlovchi va institutlararo hamkorlikka tayangan” boshqaruv modeli bilan almashtirildi. Bu tarixiy saboqlar O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash siyosatining profilaktik va tizimli xarakter kasb etishida muhim burilish nuqtasi bo‘lib xizmat qildi.

Bu jarayonda diniy yoki milliy masalalar keskinlashib ketgach javob berish emas, balki ularning oldini olishga qaratilgan monitoring, tahlil va muloqot mexanizmlari ustuvor ahamiyat kasb etdi. Xususan, joylarda diniy jamoalar, milliy-madaniy markazlar va mahalliy tuzilmalar bilan olib borilgan muntazam muloqot ijtimoiy muammolarni siyosiy ziddiyatga aylanmasdan hal qilish imkonini berdi.

Muhim jihat shundaki, O‘zbekiston tajribasida davlat institutlari diniy va milliy sohada xalqaro majburiyatlar va tavsiyalarni ham inobatga oldi. BMT, YXHT, UNESCO kabi xalqaro tuzilmalar doirasida diniy bag‘rikenglik, migratsiya va ozchiliklar huquqlari bo‘yicha shakllangan yondashuvlar milliy siyosatga moslashtirilgan holda tatbiq etildi. Biroq bu jarayon mexanik ko‘chirish orqali emas, balki milliy tarixiy va ijtimoiy sharoitga mos ravishda amalga oshirildi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda davlat institutlarining diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlashdagi roli nazorat va majburlashga emas, balki muvofiqlashtirish, profilaktika va ijtimoiy muvozanatni saqlashga yo‘naltirilgan boshqaruv modeli sifatida shakllandi. Ushbu yondashuv diniy va milliy xilma-xillikni

beqarorlik manbai emas, balki huquqiy va institutsional mexanizmlar orqali barqarorlashtiriladigan ijtimoiy resursga aylantirish imkonini berdi.

MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash jarayoni faqat huquqiy me‘yorlar bilan emas, balki ularni amaliyotga tatbiq etuvchi institutlar tizimi orqali barqarorlashganini ko‘rsatdi. Bu holat institutsional yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, jamiyatdagi murakkab ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda “qoidalar” bilan bir qatorda “tashkiliy mexanizmlar” ham hal qiluvchi omil ekanini tasdiqlaydi. Jumladan, D. North ta‘kidlaganidek, institutlar jamiyatdagi “o‘yin qoidalari” sifatida ijtimoiy tartibni barqarorlashtiradi va mojarolar ehtimolini kamaytiradi. O‘zbekiston tajribasida ham diniy va milliy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar davlat institutlari faoliyati orqali ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qilgani kuzatildi.

Tadqiqot doirasida aniqlanganki, O‘zbekistonning institutsional modeli diniy sohada “qat‘iy taqiqlash” emas, balki huquqiy maydonga olib chiqish va muvofiqlashtirish tamoyiliga tayangan. Bu yondashuv diniy tashkilotlarni ochiq ro‘yxatdan o‘tkazish, qonuniy faoliyat yuritishiga sharoit yaratish orqali diniy faollikni yashirin muhitdan chiqarib, boshqariladigan ijtimoiy jarayonga aylantirish imkonini bergan. Bunday mexanizm E. Durkheim qarashlaridagi “ijtimoiy birdamlik” tushunchasi bilan uyg‘un bo‘lib, jamiyatda turli guruhlar o‘rtasidagi hamjihatlikni saqlashda institutlar muhim rol o‘ynashini anglatadi. Ayniqsa, diniy va etnik xilma-xillik sharoitida institutlarning vazifasi ziddiyatni kuchaytirish emas, balki uni yumshatish va muvozanatni ta‘minlashdan iborat ekanligi yaqqol ko‘rinadi.

Millatlararo munosabatlar sohasida esa davlat institutlari integratsion siyosat orqali etnik guruhlarini jamiyatning umumiy fuqarolik maydoniga uyg‘unlashtirishga intilgan. Bu holat B. Anderson ilgari surgan “tasavvur qilingan hamjamiyat” konsepsiyasi bilan izohlanadi: milliy birlik faqat etnik umumiylik bilan emas, balki umumiy fuqarolik qadriyatlarini, umumiy siyosiy makon va ijtimoiy hamkorlik orqali shakllanadi. O‘zbekiston tajribasida milliy-madaniy markazlarning faoliyati, madaniyatlararo muloqot, hamkorlik loyihalari hamda fuqarolik birligini kuchaytirishga qaratilgan tashkiliy mexanizmlar aynan shu jarayonni qo‘llab-quvvatlagani ko‘rinadi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda diniy va milliy masalalarga nisbatan yondashuv “reaksion” modeldan “profilaktik” modelga o‘tgan. Bunda 1990–1992-yillarda Farg‘ona vodiysida kuzatilgan keskinlik holatlari hamda 2005-yil Andijon voqealari tarixiy saboq sifatida institutsional boshqaruvning zarurligini kuchaytirgan. Bu jarayon konfliktologiya nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, L. Coser fikricha, jamiyatda ziddiyatlar tabiiy holat bo‘lishi

mumkin, biroq uni boshqarish va ijtimoiy tizim doirasida “nazoratli” shaklda ushlab turish barqarorlikni ta’minlaydi. O‘zbekiston tajribasida ham ziddiyatlarni keskinlashgandan keyin bartaraf etishdan ko‘ra, erta aniqlash, monitoring va muloqot mexanizmlarini kuchaytirish yo‘li tanlangani profilaktik boshqaruv modelining shakllanganini bildiradi.

Shuningdek, davlat institutlari faoliyatida mahalla tizimi ijtimoiy profilaktika va vositachilik mexanizmi sifatida muhim o‘rin tutgani aniqlandi. Mahalla fuqarolar yig‘inlari orqali joylarda ijtimoiy muloqotni kuchaytirish, muammolarni keskinlashmasdan hal etish hamda ijtimoiy nazorat mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish jarayoni A. Giddens ilgari surgan “ijtimoiy tizimlarning qayta ishlab chiqarilishi” nazariyasi bilan izohlanadi. Ya’ni jamiyatdagi barqarorlik yuqoridan beriladigan buyruqlar emas, balki kundalik ijtimoiy amaliyotlar va mahalliy darajadagi o‘zaro hamkorlik orqali mustahkamlanadi. Muhokama natijasida yana bir muhim jihat aniqlandi: O‘zbekiston tajribasida xalqaro standartlar va tavsiyalar inobatga olingan bo‘lsa-da, ular milliy tarixiy va ijtimoiy sharoitga moslashtirilgan holda tatbiq etilgan. Bu jarayonni J. March va J. Olsen ta’kidlagan “institutsional moslashuv” tamoyili orqali izohlash mumkin, ya’ni davlatlar tashqi me’yorlarni to‘liq ko‘chirib olmasdan, ularni o‘z siyosiy madaniyati va tarixiy sharoitiga moslashtiradi. O‘zbekiston misolida ham diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik bo‘yicha xalqaro yondashuvlar milliy manfaatlar va barqarorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirilgan. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlashda davlat institutlari muvofiqlashtiruvchi, profilaktik va integratsion boshqaruv mexanizmlarini shakllantirgan. Bu yondashuv diniy va milliy xilma-xillikni ijtimoiy beqarorlik omili sifatida emas, balki huquqiy-institutsional mexanizmlar orqali barqarorlashtiriladigan ijtimoiy resurs sifatida talqin qilish imkonini bergan.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda mustaqillik yillarida O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlashda davlat institutlarining tarixiy-institutsional roli tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur yo‘nalishdagi siyosat faqat normativ-huquqiy hujjatlar bilan cheklanmagan, balki ularni amaliyotga tatbiq etuvchi institutlar tizimi orqali izchil shakllantirilgan.

Birinchiidan, diniy va milliy munosabatlarni tartibga solishda davlat institutlari “qat’iy nazorat” yoki “buyruqbozlik” modeliga emas, balki muvofiqlashtirish, profilaktika va ijtimoiy muvozanatni saqlash tamoyillariga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirdi. Bu yondashuv diniy tashkilotlar faoliyatini huquqiy

maydonga olib chiqish, konfessiyalararo tenglikni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Ikkinchidan, millatlararo totuvlikni ta'minlashda integratsion siyosat, milliy-madaniy markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda mahalla institutining joylardagi profilaktik vazifasi jamiyatda fuqarolik birlikni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ldi. Ayniqsa, diniy va milliy masalalarda muammolarni keskinlashgandan keyin hal etishdan ko'ra, erta monitoring, muloqot va oldini olishga asoslangan yondashuvning ustuvorligi tarixiy tajriba bilan tasdiqlandi.

Uchinchidan, O'zbekiston tajribasi diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlashda xalqaro me'yor va tavsiyalarni inobatga olgan holda, ularni milliy tarixiy va ijtimoiy sharoitga moslashtirish orqali o'ziga xos barqaror modelni shakllantirganini ko'rsatdi. Umuman olganda, O'zbekistonda davlat institutlari diniy va milliy xilma-xillikni ijtimoiy beqarorlik manbai sifatida emas, balki huquqiy va institutsional mexanizmlar orqali barqarorlashtiriladigan ijtimoiy resurs sifatida boshqarishga erishdi. Bu esa diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlashda institutsional hamkorlik va profilaktik boshqaruv modelining amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. -Тошкент: О'zbekiston, 2011.
2. Бозоров О. 1989 йилдаги Фарғона фожеси: унинг сабаб ва оқибатлари. Тошкент: Фан, 2010.
3. Юнусова Х.Э. Ўзбекистонда совет давлатининг миллий сиёсати ва унинг оқибатлари (XX аср 80-йиллари мисолида). -Тошкент: Зар қалам, 2005.
4. Мустақил Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ривож. -Тошкент: О'zbekiston, 2012.
5. Воҳидов М.Т. Толерантлик – ёшларни ижтимоий-ахлоқий юксалтириш омили. Фалсафа фан.номз.авторреф. -Тошкент, 2010.
6. Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. 6-нашр. -Тошкент, 2016.
7. Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиш тарихи: 1980-1990-йиллардаги ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий омиллар. Илмий тўплам. /Масъул муҳаррирлар: М. Раҳимов, О. Абдимўминов. -Тошкент: "TURON IQBOL", 2019.